SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 2. Jild 4.

2024

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 2(4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*
ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ........ 10-15

*Umarov Sardor Yakubovich*
QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI, DEMOGRAFIK OʻZGARISHLAR ........ 16-20

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH YO'LLARI ........ 21-29

*Халилдинов Азизбек Абдуқаххорович*
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ........ 30-34

*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*
КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ........ 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ........ 46-52

*Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi, Achilboyeva Sevinch O'tkir qizi*
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*
ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЬСИРИНИ БАҲОЛАШ УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ........ 61-68

*Namazov Gafur Shokulovich*
IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH ........ 69-75

### *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*
YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI .... 76-81

*Kadirova Ziyoda Rahimdjanovna*
ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI ........ 82-86

*Turdiyev Bexruz Sobirovich*
JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 87-92

*Alimatova Nargis Abduxalilovna*
KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI ........ 93-98

*Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi*
MA'NAVIYAT – YANGI OʻZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR........ 99-103

*Кувандиков Шокир Облокулович*
МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ ........ 104-111

*Yusupaliyev Orzimurod Odilovich*
YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR ........ 112-119

*Eshonqulov Laziz Norqobul o‘g‘li*
BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI ........ 120-125

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Saitova Nilufar Djumaydillayevna*
YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI ........ 126-130

*Nurmanov Furqat Xayitqulovich*
O‘G‘UZ” ETNONIMI VA O‘G‘UZLAR ........ 131-137

*Qudratova Sitora Olimovna*
AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI ........ 138-148

*Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna*
METAFORALARNING O’ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV ........ 149-153

*Qodirova Madinabonu Murodjon qizi*
LINGVISTIK TA’MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI ........ 154-159

*Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз*
ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ ........ 160-165

*Azimova Aziza Alisher qizi*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI ........ 166-172

*Shoymardonov Ilhom Alixonovich*
BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG‘LIQ BOLALAR QO‘SHIQLARI ........ 173-178

*Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna*
SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI ........ 179-184

*Mirzayev Jasur, Madalov Navruz*
THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE ........ 185-190

*Yuan Xiaowei*
ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY ........ 191-197

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Ражабов Нариман Шарифбаевич*
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 198-206

*Yakubova Iroda Bahramovna*
MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK

HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR OʻRTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI ........ 207-212

*Inoyatov Behruzjon Umidjon oʻgʻli*
TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 213-220

*Раимова Шохсанам Ғайратжоновна*
РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ........ 221-227

*Mukumov Bobur*
CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL ........ 228-234

*Нодирахон Абдурахманова*
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА ........ 235-239

*Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли*
ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА ........ 240-246

*Turakulova Nazira*
MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIY BOSHQARISH ........ 247-260

*Якубов Бекзод Эркинбаевич*
КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ........ 261-265

***13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***

*Mamajonov Xoshimjon Abdumalikovich*
FIZIKA FANINI IJODIY O`ZLASHTIRISH YOʻLLARI (AKADEMIK LITSEYLAR MISOLIDA) ........ 266-271

*Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna*
OʻZBEKISTON OLIY OʻQUV YURTLARIDA ISPAN TILI BOʻYICHA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI OʻQITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH ........ 272-281

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*
TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI ........ 282-287

*Jumayev Xushboq Soatmumin oʻgʻli*
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI OʻQUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 288-291

*Omonqulov Ulugʻbek Maxsiddin oʻgʻli*
IQTIDORLI OʻQUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI ........ 292-296

*Jumaboev Nabi Pardaboevich*
THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM ........ 297-304

*Kayumov Erkin Kazakbayevich*
TASVIRIY SAN'ATNING OʻQUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI ........ 305-310

*Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna*
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA’LIM BERISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING ROLI ........................................ 311-317

*Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna*
SOMONIYLAR DAVRI SAN’ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI ........................................ 318-322

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 9/S (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Qodirova Madinabonu Murodjon qizi**
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
e-mail: begonammmm@gmail.com

## LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI

**Annotatsiya.** Kompyuter lingvistikasining asosiy vazifasi tilshunoslik muammolarini kompyuter dasturlari yordamida hal etishdan iborat. Tilshunoslikning ma'lum yo'nalishiga doir muammoni hal etuvchi dasturiy ta'minot tarkibiga tilga oid muayyan bilimlar bazasini qamrab oladi. Bu lingvistik ta'minot qismideb yuritiladi. Ushbu maqolada lingvistik ta'minot tushunchasi, lingvistik ta'minot vositalarining tarkibi, qanday dasturlar uchun qaysi turdagi ma'lumotlar bazasidan foydalanish samaraliroq bo'lishi haqida fikr yuritiladi. Mashina tarjimasida qo'llaniladigan lingvistik bilimlar bazasi haqida alohida to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** lingvistik ta'minot, leksik va matniy resurslar, aralash resurslar, internet resurslari, lisoniy baza, grammatik baza, lingvistik ta'minot modellari.

**Kadirova Madinabonu**
Doctoral student of Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature

## LINGUISTIC DATABASES: STRUCTURE AND COMPOSITION

**Abstract.** The main task of computer linguistics is to solve linguistic problems with the help of computer programs. The software that solves the problem of a certain direction of linguistics includes a certain knowledge base about the language. This is considered part of the linguistic supply. This article discusses the concept of linguistic support, the composition of linguistic support tools, which type of database is more effective to use for which programs. The linguistic knowledge base used in machine translation is discussed separately.

**Key words:** linguistic support, lexical and textual resources, mixed resources, internet resources, linguistic base, grammatical base, models of linguistic support.

**Кадирова Мадинабону**
Докторант Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА: СТРУКТУРА И СОСТАВ

**Аннотация.** Основная задача компьютерной лингвистики – решение лингвистических задач с помощью компьютерных программ. Программное обеспечение, решающее задачи определенного направления языкознания, включает в себя определенную базу знаний о языке. Это считается частью лингвистического обеспечения. В данной статье рассматривается понятие лингвистического обеспечения, состав средств лингвистического обеспечения, какой тип базы данных эффективнее использовать для каких программ. Отдельно обсуждается база лингвистических знаний, используемая при машинном переводе.

**Ключевые слова**: лингвистическое обеспечение, лексические и текстовые ресурсы, смешанные ресурсы, интернет-ресурсы, лингвистическая база, грамматическая база, модели языкового обеспечения.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N22

**Kirish.** Ma’lum vazifani bajarishga xoslangan dasturiy mahsulot ichki tuzilishi jihatidan ikki asosiy qismga bo‘linadi:

*Dasturiy ta’minot;*

*Lingvistik ta’minot.*

Dasturiy ta’minot bu kompyuterda ma’lum bir turdagi vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vosita deb qaraladi. [1; 1011-b]. Lingvistik ta’minot esa bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, bu muayyan tilga oid lingvistik bilimlar umumlashmasidir. Foydalanuvchi biror lingvistik dastur yoki ilovadan foydalanganda uning dastur tomonini ishga tushiradi. Shuni e’tiborga olish kerakki, bu dasturiy ta’minot o‘z tarkibiga ulkan lingvistik bilimlar bazasini olgan bo‘ladi. Ayniqsa, tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik tahrir, avtomatik tarjima, informatsion-qidiruv tizimlari yo‘nalishlariga aloqador dasturiy mahsulotlar lingvistik bilimlar bazasiga asoslanmay ish ko‘ra olmaydi. Shunday qilib, biz uchun foydali bo‘lgan ko‘plab dasturlar ulkan til bilimlar bazasini talab etadi. Shu sababli kompyuter lingvistikasi sohasining nazariy bilimlarni takomillashtirish qismi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Dunyo tilshunosligida hozirgi kunda K.V.Rusetskiy, N.A.Mishankina, Ye.A.Panasenko, K.S.Kochergina, A.L.Bochkova, I.I.Sajenin, N.A.Metlitskaya, S.V.Ivanova, L.G.Fedyuchenko kabi olimlar izlanish olib bormoqdalar. Xususan, N.A.Mishankina va Ye.A.Panasenkolar metaforik terminologiyaning lingvistik bazasini qurishning konseptual asoslarini ishlab chiqdilar. N.A.Mishankina ishlari gumanitar fanlarda ma’lumotlar bazasi texnologiyasiga asoslangan axborot tizimlarini yaratish va axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq muammolar, xususan, ushbu texnologiyadan filologik (lingvistik) tadqiqotlar sohasida foydalanish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga qaratilgan [7; 35-40-b].

O‘zbek tilshunosligida ham bu borada bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilganligini unutmaslik lozim. Xususan, N.Abdurahmonova tomonidan matnni morfologik tahlil qiluvchi dastur uchun lingvistik ta’minot yaratilganligi, “Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti” nomli monografiya va “Kompyuter lingvistikasi” darsligida tilni modellashtirish, formal til nazariyasi, o‘zbek tilining grammatik lingvistik bazani tuzishdagi muhim jihatlar haqida qimmatli ma’lumotlar berib o‘tilgan. Bundan tashqari, A.Po‘latov, N.Jo‘rayeva, B.Alixojayevlarning o‘zbek tilini modellashtirishga oid “Разработка формальной модели грамматики узбекского языка” va “Разработка программы компьютерного анализа и синтеза глаголов узбекского языка” nomli tadqiqotlarini ham alohida ta’kidlash lozim. Bundan tashqari filologiya fanlar doktori, dotsent Sh.Hamroyevaning “O‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta’minoti” dissertatsiyasi va dissertatsiya doirasida chop etilgan ko‘plab maqolalarida turkiy tillar uchun ishlab chiqilgan morfologik analizatorlar funksional imkoniyatlari o‘rganilgan; o‘zbek tilidagi imloviy o‘zgarishlar tufayli so‘z shakllarining umumiy qoidalaridan farqlanuvchi so‘zlar uchun morfotaktikaning kombinator va pozitsion lingvistik ta’minoti dasturi ishlab chiqilgan; o‘zbek tili birliklarini avtomatik morfologik tahlil qilish uchun so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi morfemalar hamda qo‘shimcha shaklidagi yuklamalarning so‘zga birikish pozitsiyalari dasturiy ta’minot algoritmi uchun lingvistik modellashtirilgan

**Muhokama va natijalar**. Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda tarkibi va tuzilishiga ko‘ra lingvistik ma’lumotlar bazalarini quyidagi turlarga ajratiladi:

➢ *Leksik resurslar:*

- Kompyuter lug‘atlari;
- Tezauruslar
- Ontologiyalar.

➢ *Matniy resurslar:*

- Matlarning sohaviy majmuasi;
- Matn korpusi

➢ *Aralash resurslar*:

- So'zlarning ma'lumotlar bazasi.

➢ *Internet resurslar*:

- WikiPedia
- Wikilug'atlar.

Tarkibidagi birliklarining tuzilishiga ko'ra ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- *Katta hajmli til birliklarini o'z ichiga olgan LTV* (matn korpuslari, matn to'plamlari);
- *Kichik til birliklaridan iborat LTV* (morfologik birliklarning lingvisit ma'lumotlar bazasi, Wikilug'at).

Hozirgi vaqtda olimlar tomonidan ma'lumotlar bazalarni yaratishda ikki yondashuvdan biriga asoslaniladi:

*a) algebraik-mantiqiy birliklardan foydalangan holda ma'lumotlar bazalarini yaratish;*

*b) sof lingvistik qoidalar asosida til modellarini qurish.*

Birinchi yo'nalishda tilni formallashtirish, modellashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Qaysidir ma'noda bu dasturiy ta'minot vositalarining ishini osonlashtiradi. Biroq, ikkinchi yo'nalish tarafdori bo'lgan olimlar tilning modellashgan shakli ushbu tilning imkoniyatlarini to'la ochib bera olmasligini ta'kidlaydilar. Xususan, rus olimi R. Yu Kobrin [2; 245-b] lingvistik modellashtirish konseptualning asosi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan lingvistik ma'lumotlar bazasi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

1) *semantik va morfologik ma'lumotlarni ko'rsatuvchi leksik birliklarning avtomatik lug'ati*. Bu lug'at foydalanuvchi maqsadidan kelib chiqib turli modellarda (iyerarxik, daraxtsimon, mohiyat-aloqa kabi) yaratilishi mumkin. Avtomatik lug'atning lug'at yozuvi ikkita zonani o'z ichiga oladi:

• *semantik axborot;*

• *grammatik ma'lumotlar*.

Semantik ma'lumotlar zonasi leksik birlikning semantik atributini, ya'ni uning ma'lum bir semantik kichik sinfga berilishini o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan semantik tasnif leksik birliklar denotativ-ma'noli tamoyilga asoslanadi va shu so'zlar bilan belgilab qo'yilgan narsa va hodisalarning o'zini tasnifini aks ettiradi. Semantik kichik sinflar obyektivlik (otlar), xarakteristikalar (sifatlar, ravishlar), subyektivlik (fe'llar) umumiy kategorik semasiga ega bo'lgan leksik birliklar sinflarining bir qismi sifatida aniqlanadi.[3; 62-b]

*2) matnlarning semantik-sintaktik formulalari*. Ular jumla yoki matnning tuzilishini dasturiy ta'minotga "tushuntirish"da qo'l keladi. Til tuzilishi hamda matnni analiz va sintez qilishning aniq vazifalariga asosan lingvistik ta'minotida quyidagilarning mavjud bo'lishi talab qilinadi: matn – leksik asos, leksema shakl – so'z birikmasi, sintaktik gap strukturalari. Tarjimadan avvalgi tahlil jarayonida uch asosiy iyerarxik bosqich amalga oshiriladi: matn-jumla-leksema shakl. Bunda leksema shakl keng ma'noda matndan olingan istalgan segment birlik sifatida qaraladi. Gap va so'z birikmalarining barcha strukturaviy hamda boshqa xususiyatlari leksema shakl tushunchasida ifodalanadi. [4; 31-b]

Ma’lumotlar bazasining tuzilishi va tarkibi haqida so‘z ketganda albatta uning tarkibiy qismlariga to‘xtalib o‘tish lozim. Olimlar tomonidan ma’lumotlar bazasining quyidagi tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi: Bular informatsion komponent, lingvistik komponent, texnik komponent, tashkiliy komponent [5; 45-58-b].




Odatda, ma’lumotlar bazasi qandaydir tarzda to‘ldirilgan jadval yoki shunday jadvallar to‘plami, shuningdek, stringlar (yozuvlar) yoki maydonlar umumlashmasidan iborat bo‘ladi. Jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlar bazasida ma’lumotlar mazmuni satr va ustunlar kesishmasi bilan aniqlanadi. Maydonlar ma’lumotlar bazasi strukturasini tashkil qiladi, yozuvlar esa undagi ma’lumotlarni tashkil qiladi.

Matn maydoni — cheklangan belgilar yoki raqamli ma’lumotlardan iborat tuzilma sanaladi. Bu maydon 255 tagacha belgidan iborat bo‘lishi mumkin[6; 114-b]. Jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlar omborining string ko‘rinishidagi ma’lumotlar omboridan asosiy farqi — jadvallarda ma’lumotlarning aynan o‘zi saqlanmaydi, ularda asosiy ma’lumotlarga yo‘naltiruvchi havolalar yig‘ilgan bo‘ladi. Shu sababli ulardagi ma’lumotlar hajmi cheklangan. Bu jadvallarni qayta ishlash, uning ustida amallar bajarishni, tahrir qilishni osonlashtiradi.

Lingvistik ma’lumotlar bazasining quyidagi modellarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

*Iyerarxik model*. Bu modelda ma’lumotlarning joylashishi zinama-zina tizimiga asoslanadi. Bunda ma’lumotlarning tuzilishi, hajmi, dasturiy ta’minotdagi roli kabi omillarni hisobga olgan holda modellashtirish mumkin bo‘ladi.

*Daraxtsimon model*. Bunday tuzilmaning har bir shoxida bitta bobo shox va ko‘p avlod shoxlar bo‘ladi. Bunday tizimga misol qilib so‘z turkumlarining joylashish tizimini keltirib o‘tishimiz mumkin. Dastlab mustaqil, yordamchi va alohida olingan so‘z turkumlari, o‘z navbatida ularning avlod shoxlari sifatida ot, sifat, son, fe’l, olmosh, ravish; bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama; undov so‘zlar, taqlid so‘zlar, modal so‘zlar kabilar. Shuningdek, bu shoxlarni ham yana ichki tizimlarga bo‘lish mumkin bo‘ladi.

*Mohiyat-aloqa modeli*. Bunday modellarga yaqqol misol sifatida lugʻatlardagi maʼlumotlarning joylashishini misol qilish mumkin. Maʼlumotlarning asl mohiyati toʻla ochib berilgan tavsifiy matn bilan aloqador nom maʼlumotning tashqi tuzilishini tashkil etadi.

Maʼlumotlar bazasidagi maʼlumotlar orasida 2 xil aloqa mavjud boʻladi:

*Ekvivlent aloqa*. Bunda lingvistik ombordan joy olgan ikki yoki undan ortiq birlik oʻzaro teng munosabatda boʻladi.

*Relyatsion aloqa*. Maʼlumotlar bir-biriga bogʻliq, biri ikkinchisini taqozo etadi.

Hozirgi kunda mavjud lingvistik maʼlumotlar bazasini bir necha xususiyatlariga koʻra guruhlarga ajratish mumkin:

– *ifodalanishiga koʻra*: zamonaviy tilshunoslikda ovozli xarakterga ega lingvistik maʼlumotlar bazasi yaratish anʼanasi avj olmoqda. Ular ogʻzaki nutq bilan ishlovchi dasturlar uchun juda qoʻl keladi. Masalan, maʼlum hududda mavjud shevalarni ifodalovchi lingvistik bilimlar bazasi kabi. Shu sababli maʼlumotlar bazasini dastlab ifodalanishiga koʻra yozma, ogʻzaki va aralash xarakterli turlarga ajratamiz;

– *qoʻllanish sohasiga koʻra*: masalan, tibbiyot sohasida qoʻllanuvchi tibbiyot terminlarining lingvistik taʼminoti, metaforik terminlarning lingvistik taʼminoti va hokazo;

– *maʼlumotlar manbaiga koʻra*: bir necha turdagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan LTV (jadvallar va stringlar umumlashmasidan tuzilgan lingvistik taʼminot vositalari), faqat bir turdagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan LTVlari (lingvistik lugʻatlar);

– *qoʻllanish maqsadiga koʻra*: masalan, terminologik tadqiqotlar uchun ishlab chiqilgan LTVlar (metaforik terminologiya maʼlumotlar bazasi), psixolingvistik tadqiqotlar uchun ishlab chiqilgan LTVlar (psixolingvistik maʼlumotlar bazasi) kabi.

Maʼlumotlar bazasining konseptual tuzilishi quyidagicha boʻladi:

1. Lingvistik maʼlumotlar bazasini yaratish orqali hal qilinadigan vazifalar doirasi belgilanadi.

2. Turli fan sohalarining metaforik terminologiyasi alohida oʻrganish uchun olinadi. Chunonchi,

– *ilmiy-texnika*: geologiya, neft-gaz terminologiyasi;

– *axborot texnologiyalari*;

– *gumanitar soha*: psixologiya, tilshunoslik, falsafa, sotsiologiya;

– *tabiiy fanlar*: tibbiyot, biologiya, ekologiya atama tizimlari va hokazo.

3. Mavzu sohasining asosiy va periferik obyektlari va ular orasidagi bogʻlanishlar aniqlanadi, ular asosida loyihalashtirilgan maʼlumotlar bazasining infologik diagrammasi shakllanadi.

4. Obyektlarning atributlari aniqlanadi va relyatsion maʼlumotlar bazasining datalogik diagrammasi tuziladi.

Yuqorida keltirilgan talablarga javob beradigan MB quydagi tamoyillarga asoslangan holda tashkil qilinishi mumkin:




**Xulosa.** Shunday qilib, yuqorida ko`rib o`tilgan tamoyillar asosida MB ning tarkibi yaratiladi, ishlab chiqarishga tatbiq etiladi. Amaliy tilshunoslik va zamonaviy leksikografiya kesishmasidagi samarali yo'nalishlardan biri bu lingvistik ta'minot vositalarini ishlab chiqish bo'lib, ulardan foydalanish bir qator yangi muammolarni hal qilish va an'anaviy tilshunoslik muammolarini hal qilish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Zokirov M., Raimjonov O. Kompyuter lingvistikasida ta'minot masalasi va frazeologik birliklarning lingvistik ta'minoti // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Toshkent - 2023, 1011-b
2. Головин Б.Н., Кобрин-Р.Ю. Лингвистические основый учения о терминаҳ. Учеб. пособые для фил. спец. вузов // Высшая школа. Москва, 1987 с. 245.
3. Метлицкая Н.А. Лингвистическая база данных системы автоматического порождения англоязычного рекламного текста Минский государственный лингвистический университет// Информационные технологии в образовании, 2. 2017, 62-b
4. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti Akademnashr, Toshkent – 2018, 31-bet
5. Федюченко Л.Г . Структурно-функциональные параметры терминологической базы данных. // Вестник Тюменского государственного университета. Гуманитарные исследования. Humanitates. 2017. Том 3. № 2. С. 45-58
6. Саженин И.И. К вопросу о построении базы данныхпрагматически маркированной лексики. // Вестник Новосибирского государственного педагогического университета: 5(27)2015. С. 114
7. Mishankina N.A. (2012) Database In Socio-Humanitarian Research. Otkrytoe i distantsionnoe obrazovanie – Open and Distance Education. 2 (46). pp. 35–40

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).